



**THE TERRITORIES AND POPULATION OF THE KHANATES**

**Sevaraxon Qodirova**

Senior Research Fellow, Kokand State Museum-Reserve

**Abstract:** This article analyzes the territorial composition and the ethnic and social structure of the population of the Kokand Khanate, the Bukhara Emirate, and the Khiva Khanate, which existed in Central Asia during the 18th–19th centuries. The study highlights the geographical location of the khanates, their population size, ethnic composition, as well as the interactions between sedentary and nomadic communities.

**Keywords:** History of Central Asia, khanate period, Kokand Khanate, Bukhara Emirate, Khiva Khanate, territorial boundaries, geographical location, population size, demographic processes, ethnic composition, Uzbeks, Tajiks, Kyrgyz, Kazakhs, Turkmens, Karakalpaks, nomadic population, sedentary population, social stratification, peasants, pastoralists, economic life.

**XONLIKLARNING HUDUDLARI VA AHOLISI**

*Sevaraxon Qodirova*

*Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyo hududida mavjud bo‘lgan Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining hududiy tarkibi hamda aholisining etnik va ijtimoiy tuzilishi tahlil qilinadi. Maqolada xoniklarning geografik joylashuvi, aholi soni, millatlar tarkibi, shuningdek, o‘troq va ko‘chmanchi aholining o‘zaro munosabatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo tarixi, xonliklar davri Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, hududiy chegaralar, geografik joylashuvi aholi soni, demografik jarayonlar, etnik tarkib, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar ko‘chmanchi aholi, o‘troq aholi, tabaqalashuv, dehqonlar, chorvadorlar, iqtisodiy hayot.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyo hududida uchta yirik siyosiy davlat mavjud bo'lgan: Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi. Ushbu davlatlar mintaqa siyosiy hayoti, iqtisodiyoti va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Ularning har biri o'ziga xos hududiy tuzilma, etnodemografik holat va ma'muriy-siyosiy boshqaruv tizimiga ega bo'lib, bu davlatlar demografiyasi tabiiy o'sish, migratsiya va geografik omillar asosida shakllanib borgan.

*Buxoro amirligining hududi*

XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining mustahkamlanishi feodal tarqoqlikni tamomila tugatolmadi. Yaqin atrofda amir hokimiyatiga bo'ysinmaydigan bir qator mayda feodal yerlari mavjud edi (Shahrizabz, Jizzax, O'ratepa hamda boshqa mustaqil va yarim mustaqil shaharlar va tumanlar).

Samarqand va amirlikning poytaxti Buxoro bo'lgan Zarafshon vodiysi Buxoro amirligining markazi edi. Bu vodiylar hosildor bo'lib, Buxoro amirligining janubiy qismi va ayniqsa Qorako'l vohasini hisobga olmaganda, Zarafshon suvidan to'yib suv ichar edi.

Buxoro amirligi Eron, Xeva va qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. XIX asrning boshlarida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxandaryo viloyati, hozirgi Tojikiston hududidagi Hisor, Xo'jand, Panjikent va Zarafshon daryosining yuqori oqimi, Janubiy Turkistonning katta qismi, hozirgi Turkmanistonning Murg'obchaga bo'lgan yerlari, shimolda-Turkiston shahrigacha bo'lgan barcha yerlar ham amirlikka qarar edi.

XIX asrning birinchi yarmi mobaynida hukmdorlar amirlik hududini kengaytirishga bir necha bor urinib ko'rdilar, ammo sezilarli natijalarga erisholmadilar. Ular qo'lga kiritgan Marv uzoq vaqt davomida Buxoro bilan Xeva o'rtasida talash bo'lib turdi va oqibat natijada Xeva xonining mulki bo'lib qoldi. Qo'qon xonligidan vaqtincha tortib olingan hududlar ham qo'ldan ketdi. Jizzax, O'ratepa, Xo'jand va Toshkent uchun uzoq va jiddiy kurash davom etdi.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Buxoro amirligi viloyatlarga, ular esa tumanlar va hazoralarga bo‘linib, bu yerlarni amlokdorlar, nimhazorlar va abxorlar boshqarishardi.

Amir Haydar taxtga chiqqan paytda (1800-1826 yillar) Buxoro amirligining yerlari Ashtarxoniylar davridagiga nisbatan bir necha baravar katta edi. Unga Buxoro vodiysidan tashqari Samarqand, Miyonqala, Panjikent, Zarafshonning yuqori oqimi, Murg‘ob vohasi, Hisor, O‘ratepa, Turkiston shahri va Afg‘on Turkistonning katta qismi qarardi. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida o‘tkazilgan irrigatsiya ishlari sug‘oriladigan maydonlarni ancha kengaytirish imkonini berdi va ko‘chmanchilarning ommaviy ravishda o‘troq hayot tarziga o‘tishlari uchun sharoit yaratdi. Ammo bu vaqtda Buxoro amirligi aholisining yarmiga yaqini hamon yarimko‘chmanchi bo‘lib yashardi.

Samarqandning shimoli-g‘arbida joylashgan O‘ratepa qal’asi Buxoro amirligining chegara punkti xizmatini o‘tardi. Chegara chizig‘i Qarag‘atdan to O‘ratepagacha davom etardi. Qarag‘atdan boshlangan g‘arbiy chegara chizig‘i Buxorodan Xevagacha borardi. Bir vaqtlar mashhur bo‘lgan va bu vaqtga kelib e‘tibordan qolgan Marv Buxoroning eng g‘arbdagi tayanch qal’asi edi.

Buxoro amirligining janubiy chegarasi Marvdan Amudaryogacha bo‘lgan chiziqdan o‘tib, keyin Hisor xonning chegara shahri bo‘lgan Denovga tomon burilardi.

Sharqiy chegarani Denovdan O‘ratepagacha boradigan chiziq bilan belgilash mumkin edi, Buxoroning sharqidagi eng uzoqda joylashgan Fan shahri ham chegara chizig‘iga kirardi.

**Buxoro amirligining aholisi**

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mamlakatda xo‘jalik muayyan darajada rivojlanganligi munosabati bilan Buxoro amirligining aholisi o‘sa boshladi.

Aholining soni XIX asr boshlarida salkam ikki million kishiga, Buxoro shahrida esa 60 ming kishiga yetib qoldi. Samarqandda 50 ming aholi yashardi. Buxoro atrofidagi boshqa shaharlarda 300 tadan 500 tagacha xonadon bor edi. Buxoro amirligi aholisining tarkibiga ko‘pgina elatlar kirar va ularning ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil qilar edi.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

O'zbeklar ko'plab qabilalardan tarkib topgan bo'lib, ular orasida ko'p sonli saroy va qo'ng'iroq qabilalaridan keyin eng qudratlisi mang'itlar edi. Ular o'z navbatida qora mang'it, ko'k mang'it va oq mang'it guruhlariga bo'linardi. Jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, xitoy, qipchoq, qirq, jay ("chig'atoy" so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin) va ming qabilalari qatoriga kirardi. Ular asosan Samarqand, Buxoro, Qorako'l, Qarshi, G'uzor shaharlari atrofida va Miyonqalada yashashardi.

Buxoro amirligining shaharlarida va ayrim qishloqlarida tojiklar ham yashardi. Janubiy va g'arbiy tumanlarda asosan ko'chmanchi turkmanlar yashardi.

Amirliklarning turli joylarida (Qarshi, Gurlan, Pitnak, Shohobod va boshqa yerlarda) arablarning avlodlari tarqoq holda kichik-kichik guruh bo'lib yashardilar va ular aholining ozgina qismini tashkil qilardi.

Arablar O'rta Osiyoga uni xalifalik istilo qilgan paytlarda (VII-IX asrlar) ko'chib kelishgan edi. Ularning ayrimlari ko'chmanchi, ayrimlari yarim ko'chmanchi tarzda hayot kechirishardi. Chorva mollariga ega bo'lgan dehqonlari ham bor ediki, ular mollarini cho'llarda boqishar va katta daromad manbai bo'lgan mashhur qorako'l teri yetkazib berishardi.

Amirlikda ozroq forslar, yahudiylar, hindlar, lo'lilar, afg'onlar va boshqa xalq vakillari ham yashardi. Masalan, Buxoroda bir necha yuz nafar qalmaq istiqomat qilardi.

Qoraqalpoqlar Orol dengizining sohilida, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida, shuningdek Zarafshonda alohida tumanlarga joylashishgan edi. 1820 yilda ularning soni taxminan 100 ming kishiga borib qolgan edi.

Kichik va O'rta juzlardan chiqqan qozoqlar Buxoro amirligining shimoli-sharqida yashardilar. Amirlikda shuningdek Rossiya fuqarosi bo'lgan uch mingga yaqin tatar yashardi.

Amirlikda ko'chmanchi aholidan o'troq aholi ko'proq edi. Ko'chmanchi va yarimko'chmanchi aholi asosan XVI asrda Qashqadaryo tumaniga va Zarafshon vohasiga ko'chib kelib, shu yerda qolgan ko'pdan-ko'p qabilalarning avlodlari edi.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Denov viloyatidagi Xitoy-qipchoqlar, markitlar va hokazolar, asosan Amudaryoning o'ng sohilida Chorjo'yning buyog'idagi (o'zbeklar bilan amirlikning shimoli-g'arbiy chegarasidagi qozoqlar oralig'idagi) turkmanlar va ko'proq amirlikning shimoliy cho'l tumanlaridagi qozoqlar ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi tarzda hayot kechirardilar.

*Xiva xonligining hududi.*

XIX asrning 40-yillaridagi ma'lumotlarga ko'ra, "Xiva xonligining hududi o'n to'qqiz ming kvadrat milga yetib, bu yerda to'qqiz yuz mingga yaqin aholi yashardi". Xorazmga tegishli yerlar yetmish tumanga bo'lingan edi.

Xiva xonligining chegaralari barqaror emasdi, u davlatdagi va qo'shni mamlakatlardagi siyosiy ahvolga qarab o'zgarib turardi. Xonlik qozoq xonlarining yerlari, Eron va Buxoro amirligi bilan umumiy chegaralari vujudga keldi.

Xiva xonligining hududi XIX asrning butun birinchi yarmi mobaynida doimo o'zgarib turdi. Turkman, qozoq va qoraqalpoq aholisi yashaydigan yangi tumanlar va viloyatlar xonlik tarkibiga qo'shilib, Xiva chegaralari ancha kengaydi. XVIII asr oxirlarida xonlik vohaning janubiy qismida markazi Xevada bo'lgan kichik bir hududni egallardi. Vohaning shimoliy qismida markazi Qo'ng'iro't shahrida bo'lgan mustaqil davlat joylashgan bo'lib, u XVII asrdayoq Orol nomi bilan mashhur edi. Janubda va janubi-sharqda xonlik yerlari Xiva vohasining serhosil yerlariga borib taqalardi. Xiva xonligi bilan Buxoro oralig'ida suvsiz Qizilqum sahrosi yastanib yotar va o'rtasida Amudaryo oqib o'tardi. XVIII asrning dastlabki o'n yilliklarida Xivaga bo'ysundirilgan turkmanlar hududi xonlikda siyosiy ahvolining barqaror bo'lmaganligi oqibatida amalda xonlikdan ajralib chiqib, alohida turkman qabilalarining bir qancha mustaqil mulklariga bo'linib ketdi.

XIX asrning dastlabki o'n yilliklarida xonlikning ichki ahvoli yaxshilanishi bilan uning yerlari ancha kengaydi. Ammo ko'chmanchi qabilalar yashaydigan juda katta cho'llar bilan qurshab olingan xonlikning qandaydir aniq chegaralari yo'q edi, zotan xonlikning ko'chmanchilar orasidagi ta'sir doirasi kengaygan edi, xolos.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

1842 yilda Xivaga kelgan kapitan Danilevskiyning yozishicha, Xiva xonligining chegarasi g'arbda Kaspiy dengiziga, janubda Eronga borib taqalardi. 1858 yilda Xivada bo'lgan rus sayyohi Ignatevaga xonlikning janubiy chegarasi Marv vohasi orqali, shimolda esa Emba daryosidan o'tadi, deb aytishgan.

Xiva xonligi geografik mavqeining o'ziga xos xususiyati shundaki, u qo'shni davlatlardan tamomila ajralib qolgan edi. Xivani qurshab olgan suvsiz sahrolar o'tish uchun qiyin bo'lgan to'siq edi.

Xiva xonligining aholisi

Mojarolar to'xtatilganidan keyin sug'orish kanallarining yuqori va o'rta oqimidagi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan o'zlarining ilgarigi yerlariga qaytib kelgan o'zbeklar Xiva xonligi aholisining asosiy qismini tashkil qilardi. Buxoroda bo'lganidek Xivada ham o'zbeklar bir qancha qabilalarga bo'linar va ularning har biri o'zlariga tegishli ayrim kanallar sohilida joylashib yashardi. Xiva o'zbeklariga oid eng asosiy qabilalar: qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qangli, xitoy, qipchoq va hokazolar edi.

Qo'ng'iroq sulolasi uzil-kesil mustahkamlanib olguncha yirik o'zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalari bo'lib, xonlikning butun siyosiy hayotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsardilar.

Mamlakatda turli elatlarning vakillari-o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, forslar, arablar va hokazolar yashardi. Shaharlar va qishloqlarning asosiy aholisi asosan Qadimiy Xorazmda yashagan ko'pgina turkiy qabilalardan tashkil topgan va XVI-XVII asrlarda tamomila turkiy tilida so'zlashadigan qabilalar vakillaridan iborat edi. Ular dehqonchilikda katta tajriba to'plashgan va shahar madaniyatini yaratishgan edi.

*Qo'qon xonligining hududi va aholisi.*

Qo'qon xonligi XIX asrning birinchi yamida shimolda Rossiya bilan (ular o'rtasida huvullab yotgan cho'l bor edi); g'arbda Xiva va Buxoro bilan; janubda Qorategin, Darboz va Ko'lob bilan; sharqda Sharqiy Turkiston bilan chegaradosh edi. Qo'qon xonligi tarkibiga quyidagi viloyatlar va shaharlar kirardi: Sirdaryoning so'l sohili bilan





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Qorategin oralig'idagi Qo'qon viloyati; Sirdaryoning o'ng sohilidan to Olatovgacha bo'lgan Namangan viloyati, Xo'jand shahri; Xo'jand bilan Toshkent oralig'idagi O'ratepa viloyati; xonlikning eng shimoliy viloyati; xonlikning eng shimoliy viloyati Turkiston Bedpakdala sahrolariga borib taqalardi. Bundan tashqari xonlik tarkibiga Balxash ko'li bilan Sirdaryoning yuqori oqimi oralig'idagi yerlar kirardi. Billurtog'ning g'arbiy tomonidagi Qorategin, Darboz, Ko'lob, Shug'onon singari bir qator tog'li tumanlar ham Qo'qon xonligiga tegishli edi. Bu yerlarni qo'qonliklar XIX asrning 30-yillarida bo'ysindirishgan bo'lsa-da ular tez-tez qo'ldan ketib, Buxoro amiri ixtiyoriga o'tib turardi.

Qo'qon xonligi aholisining soni uch millionga yaqin edi. Rossiya uning shimoli-g'arbiy viloyatlarini bosib olgach, xonlik hududi ancha qisqarib, asosan Farg'ona vodiysi bilan cheklanadi va aholi soni taxminan ikki millionga tushib qoldi. Ayrim shaharlar haqidagina muayyan statistika ma'lumotlari saqlanib qolgan.

Qo'qon xonligining aholisi asosan o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bu yerda oz miqdorda yahudiylar, hindlar, tatarlar va boshqa ellatlarning vakillari ham yashar edilar. O'troq aholining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, ularning asosiy qismi bu yerga XIX asrning ikkinchi yarmida va shundan keyinroq ko'chib kelishgan edi.

XVIII asrning birinchi yarmidagi siyosiy voqealar, ayniqsa Buxoro xonligidagi mojarolar va jung'orlarning Toshkentga va O'rta Osiyoning boshqa shimoli-sharqiy tumanlariga bostirib kelishi aholining Farg'ona vodiysiga ko'chib borishiga sabab bo'ldi. Hisor singari Farg'ona ham geografik jihatdan qulay joylashgan bo'lib, turli mojarolardan chetroqda turganligi sababli ko'plab kishilar shu tomonlarga ko'chib kelishdi.

Odamlar har yoqlardan ko'chib kelishgani oqibatida Farg'ona vodiysida XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida millatlararo va qabilalararo munosabatlar ancha murakkab edi.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “O‘zbekiston tarixi kitobi 7-sinf” R.Muqminova, N.Xabibullaev, G.A’zamova, E.Karimov, A.Tojiboev.
2. B.Boboxodjaev Markaziy Osiyo tarixi.
3. B.Axmedov Buxoro amirligi tarixi.
4. A.Abdurahmonov Xiva xonligi tarixi.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.-Toshkent, 2000-2005.

